INTERNATSIONAL OILA FARZANDLARIDA ETNIK IDENTIKLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MODELI: OILAVIY, ETNOMADANIY VA SHAXSIY OMILLAR INTEGRATSIYASI

Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya
Kafedrasi dotsenti, psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
https://orcid.org/0000-0003-2975-6840
e - mail: Bonu_dilya84@mail.ru
Murodova Umidaxon Umidjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Maqolada internatsional oila farzandlarida etnik identiklikning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar E. Erikson, J. Marsia, J. Finni, G. Tajfel va J. Terner, M. Bryuer, J. Berri, U. Bronfenbrenner, V. Benet-Martines hamda M. Rut va boshqa olimlarning nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Etnik identiklik ikki madaniyat o‘rtasidagi o‘zlikni izlash jarayoni sifatida ko‘rib chiqilib, uning oilaviy (etnik sotsializatsiya), etnomadaniy (muhit, stereotiplar, ijtimoiy qabul) va shaxsiy (izlanish, o‘zini qadrlash, bikultural integratsiya) omillarni birlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik modeli taklif etiladi. Maqola oxirida internatsional oila farzandlariga psixologik yordam ko‘rsatish va modelni empirik tekshirishning yo‘nalishlari bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *etnik identiklik, internatsional oila, etnik sotsializatsiya, bikulturalizm, bikultural identiklik integratsiyasi, akkulturatsiya, ijtimoiy-psixologik model.*

Globallashuv va migratsiya jarayonlari kuchayib, madaniyatlararo muloqot kengayib borayotgan bir davrda millatlararo nikohlar soni ortmoqda. Ko‘p millatli O‘zbekistonda, ya’ni yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan jamiyatda, internatsional oilalar ijtimoiy hayotning tabiiy qismiga aylangan. Bunday oilada ulg‘ayayotgan bola ikki xalqning tili, urf-odatlari va qadriyatlari bilan birga yashaydi. Bu uning uchun ham boylik, ham murakkab psixologik vazifadir: «Men kimman va qaysi xalqqa mansubman?» degan savolga javob topish bir madaniyatli oilada o‘sgan tengdoshlariga qaraganda ko‘proq ichki mehnat talab qiladi. E. Erikson o‘smirlik va yoshlik davrining markaziy vazifasi sifatida aynan identiklikni shakllantirishni, uning muvaffaqiyatsiz kechishini esa rollar chalkashligi sifatida tavsiflagan [1]. Internatsional oila farzandida bu vazifa etnik o‘lchov bilan murakkablashadi, shu sababli etnik identiklikning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning dolzarb masalalaridan biridir.

Etnik identiklik – shaxsning muayyan etnik guruhga mansubligini anglashi, bu mansublikka nisbatan his-tuyg‘ulari va unga mos xulq-atvori majmuasidir. J. Finni uni to‘rt tarkibiy qismga ajratgan: o‘zini muayyan etnik guruhga mansub deb belgilash (o‘z-o‘zini

identifikatsiya qilish), guruhga daxldorlik va sadoqat hissi, guruhga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat hamda etnik faoliyatda (til, an’ana, marosimlarda) ishtirok etish [2]. G. Tajfel va J. Terner ijtimoiy identiklik nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘z o‘zini qadrlashining bir qismini mansub bo‘lgan guruhi orqali oladi va shu sababli guruhining ijtimoiy qadrini yuqori ko‘rishga intiladi [3]. M. Bryuerning optimal o‘ziga xoslik nazariyasi esa insonda bir vaqtning o‘zida guruhga qo‘shilish va undan ajralib turish ehtiyojlari mavjudligini ta’kidlaydi [4]; internatsional oila farzandi uchun bu ehtiyojlarning muvozanati ikki guruh o‘rtasida qanday shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Rus etnopsixologiyasida G.U. Soldatova etnik identiklikning olti turini ajratgan: etnonigilizm, etnik indifferentlik, normal (ijobiy) identiklik, etnoegoizm, etnoizolyatsionizm va etnofanatizm [5, 6]. Bu tasnif identiklikning «me’yoriy» va og‘ish holatlarini baholashga imkon beradi.

Identiklikning rivojlanish yo‘li bo‘yicha ham muhim nazariyalar mavjud. J. Marsia Erikson g‘oyasini rivojlantirib, identiklikning to‘rt holatini – tarqoq, oldindan belgilangan, moratoriy va erishilgan identiklikni – izlanish va majburiyat mezonlari asosida ajratgan [7]. J. Finni bu yondashuvni etnik sohaga tatbiq etib, etnik identiklik rivojlanishining uch bosqichini ta’riflagan: o‘rganilmagan, izlanish (moratoriy) va erishilgan identiklik [8]. A. Umanya-Teylor va hamkasblari esa identiklikni izlanish, aniqlik va ijobiy baho (affirmatsiya) komponentlari orqali o‘lchash va uni Erikson hamda ijtimoiy identiklik nazariyalarining uyg‘unlashuvi sifatida tushunishni taklif qilgan [9, 10]. Ikki irqli va ikki millatli shaxslarning identiklik rivojlanishiga bag‘ishlangan modellar internatsional oila farzandlarining holatiga yaqinroq. U. Postonning modelida beshta bosqich: shaxsiy identiklik, guruhni tanlash, chalkashlik va inkor, qadrlash hamda integratsiya ajratiladi [11]. M. Rut esa ikki millatli shaxslar o‘z identikligini to‘rt yo‘l bilan hal qilishini ko‘rsatgan: jamiyat belgilagan identiklikni qabul qilish, ikkala guruh bilan birdek identifikatsiya, bitta guruh bilan identifikatsiya hamda yangi, uchinchi guruh sifatida o‘zini belgilash [12]. K. Rokkuemor va D. Brunsma esa empirik tadqiqotda yakka (bir tomonlama), chegaraviy (ikki tomonlama), o‘zgaruvchan (vaziyatga qarab o‘zgaradigan) va transsendent (millatdan yuqori) identiklik turlarini aniqlagan [13]. Demak, internatsional oila farzandi uchun yagona «to‘g‘ri» identiklik yo‘q: sog‘lom natija sifatida bir nechta variant ko‘rilishi mumkin.

Bizning yondashuvimizda etnik identiklikka ta’sir etuvchi omillar uch guruhga ajratiladi va ular U. Bronfenbrenner ekologik tizimlar nazariyasi mantiqiga muvofiq – bola bevosita ishtirok etadigan mikrotizimdan (oila, maktab, tengdoshlar) tortib, keng madaniy muhitgacha bo‘lgan bir-biri bilan bog‘liq darajalar sifatida – ko‘rib chiqiladi [14].

Birinchi guruh – oilaviy omillar. Oila bola uchun birinchi va asosiy etnomadaniy muhitdir. D. Xyuz va hamkasblari ota-onalarning etnik sotsializatsiyasini to‘rt yo‘nalishga ajratgan: madaniy sotsializatsiya (til, an’ana va tarixni o‘rgatish), kamsitilishga tayyorlash, ishonchsizlikni targ‘ib qilish hamda tenglik g‘oyasini singdirish [15]. Internatsional oilalarda ota-onalarning bu yo‘nalishlardagi mavqei mos kelganda bola o‘zini ikkala madaniyatga teng daxldor his qiladi; madaniy ustunlik uchun kurash yoki bir tomon madaniyatining e’tiborsiz qoldirilishi esa sadoqat ziddiyati va etnik noaniqlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, oiladagi muloqot tili, buvi-bobolar bilan aloqaning mustahkamligi va ota-onaning o‘z etnik

identikligidan qoniqish darajasi ham muhim. Tadqiqotlarda ota-onaning ikkala madaniyatga ijobiy munosabati bolada barqaror ikki madaniyatli identiklik shakllanishining muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.

Ikkinchi guruh – etnomadaniy omillar. Bunga mahalla, maktab, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va jamiyatdagi etnik munosabatlar kiradi. Bolaning tashqi ko‘rinishi, ismi va tilini muhit qanday qabul qilishi uning o‘zligini anglashiga bevosita ta’sir qiladi. Muhit ikki madaniyatli bo‘lishni qadrlasa, bola o‘z kelib chiqishidan faxrlanadi; «o‘zimizniki emas» degan munosabat yoki stereotip bilan to‘qnash kelsa, etnik identiklikni yashirish yoki bir tomonini inkor etishga moyillik kuchayadi. Dj. Berri akkulturatsiya nazariyasida ikki o‘lchovni – o‘z madaniyatini saqlash va keng jamiyat bilan aloqa qilishni – ajratib, to‘rt strategiyani: integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiyani aniqlagan; integratsiya psixologik moslashuv uchun eng qulay strategiya hisoblanadi [16]. Bu yondashuv internatsional oila farzandi uchun ham mos: bola ikkala madaniyat bilan aloqani saqlay olsa, uning ruhiy moslashuvi yuqori bo‘ladi. LaFromboise va hamkasblarining almashinish modeli ham shaxs ikki madaniyat bilan aloqani o‘z identikligiga putur yetkazmasdan saqlay olishi mumkinligini ko‘rsatadi [17].

Uchinchi guruh – shaxsiy omillar. Bu o‘zini qadrlash darajasi, o‘zlikni izlashdagi faollik, hissiy barqarorlik, kognitiv moslashuvchanlik va muloqotdagi ishonchni o‘z ichiga oladi. Aynan shaxsiy omillar bir xil oilaviy va ijtimoiy sharoitda o‘sayotgan bolalarda identiklik yo‘li nega turlicha bo‘lishini tushuntiradi. V. Benet-Martines va Xaritatos bikultural identiklik integratsiyasi (BII) tushunchasini kiritib, ikki madaniyatli shaxslar ikki madaniyatni qanchalik uyg‘un yoki ziddiyatli idrok etishi bilan farqlanishini ko‘rsatgan: yuqori integratsiyalashgan shaxs ikki madaniyatni bir-birini to‘ldiruvchi, past integratsiyalashgan shaxs esa raqobatlashuvchi deb qabul qiladi [18]. Shuningdek, ikki madaniyatli shaxslar vaziyat va madaniy ishoralarga qarab sharhlash tizimini o‘zgartira olishi («madaniy ramka almashinuvi») aniqlangan [19]. J. Finni va Devich-Navarro bikultural identifikatsiyaning ikki ko‘rinishini – aralashgan va almashinuvchi identikliklarni – ajratgan [20].

Sanab o‘tilgan omillar o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘lgani uchun ularni birgalikda ko‘rib chiqadigan integrativ model zarur. Modelning birinchi darajasida oilaviy omillar etnik identiklik uchun «poydevor» vazifasini bajaradi; ikkinchi darajada etnomadaniy muhit bu poydevorni tasdiqlaydi yoki zaiflashtiradi; uchinchi darajada shaxsiy omillar tashqi ta’sirlarni ichki ma’noga aylantiruvchi «filtr» rolini o‘ynaydi. Natijada identiklikning to‘rt asosiy turi shakllanadi: integratsiyalashgan (ikki madaniyatli), bir madaniyatga yo‘naltirilgan, ajralgan (marginal) va tarqoq (aniqlanmagan) identiklik. Masalan, oilada ikkala madaniyatga hurmat mavjud bo‘lib, ijtimoiy muhit ham qo‘llab-quvvatlasa, bolaning shaxsiy izlanishi barqaror integratsiyalashgan identiklikka olib keladi. Aksincha, oilaviy ziddiyatlar va muhitdagi stereotiplar shaxsiy xavotirlilik bilan uchrashganda etnik identiklikning chalkashligi, o‘zini past baholash va ijtimoiy chetlanish xavfi ortadi. Ikki madaniyatli bo‘lishning psixologik moslashuv bilan bog‘liqligi bo‘yicha o‘tkazilgan meta-tahlil ham bikulturalizm ruhiy va ijtimoiy moslashuvning yuqoriroq ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligini tasdiqlagan [21].

Modelning amaliy ahamiyati internatsional oila farzandlariga psixologik yordam yo‘nalishlarini aniqlashga imkon berishidadir. Oilaviy darajada ota-onalar uchun ikki madaniyatli tarbiya bo‘yicha maslahat va treninglar, ikkala tilni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash; ijtimoiy darajada maktab va mahallada millatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish dasturlari, stereotip va kamsitishning oldini olish; shaxsiy darajada o‘zlikni anglash, o‘zini qadrlash va hissiy tartibga solish bo‘yicha individual va guruhli psixologik ishlar muhimdir. Modelni empirik tekshirish uchun J. Finnining ko‘p guruhli etnik identiklik o‘lchovi (MEIM) [22], Umanya-Teylorning etnik identiklik shkalasi [9] hamda bikultural identiklik integratsiyasi so‘rovnomasidan [18] foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, internatsional oila farzandlarida etnik identiklik oilaviy, etnomadaniy va shaxsiy omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Uning mustahkam va integratsiyalashgan bo‘lishi uchun bolaga ikkala madaniyatga daxldorlik hissini berish, ijtimoiy muhitda qabul qilinishini ta’minlash va shaxsiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash zarur. Taklif etilgan integrativ model internatsional oila farzandlarining etnik identikligini tadqiq qilishda va psixologik xizmat amaliyotida tizimli yondashuvni joriy etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erikson E.H. Identity: youth and crisis. – New York: W.W. Norton, 1968. – 336 p.
2. Phinney J.S. Ethnic identity in adolescents and adults: review of research // Psychological Bulletin. – 1990. – Vol. 108, No. 3. – P. 499–514.
3. Tajfel H., Turner J.C. An integrative theory of intergroup conflict // The social psychology of intergroup relations. – Monterey, CA: Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
4. Brewer M.B. The social self: on being the same and different at the same time // Personality and Social Psychology Bulletin. – 1991. – Vol. 17, No. 5. – P. 475–482.
5. Солдатова Г.У. Психология межэтнической напряженности. – М.: Смысл, 1998. – 389 с.
6. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – М.: Институт психологии РАН, Академический проект, 1999. – 320 с.
7. Marcia J.E. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. – 1966. – Vol. 3, No. 5. – P. 551–558.
8. Phinney J.S. Stages of ethnic identity development in minority group adolescents // Journal of Early Adolescence. – 1989. – Vol. 9, No. 1–2. – P. 34–49.
9. Umaña-Taylor A.J., Yazedjian A., Bámaca-Gómez M. Developing the Ethnic Identity Scale using Eriksonian and social identity perspectives // Identity. – 2004. – Vol. 4, No. 1. – P. 9–38.
10. Umaña-Taylor A.J., Quintana S.M., Lee R.M. et al. Ethnic and racial identity during adolescence and into young adulthood: an integrated conceptualization // Child Development. – 2014. – Vol. 85, No. 1. – P. 21–39.

11. Poston W.S.C. The biracial identity development model: a needed addition // Journal of Counseling & Development. – 1990. – Vol. 69, No. 2. – P. 152–155.

12. Root M.P.P. Resolving “other” status: identity development of biracial individuals // Women & Therapy. – 1990. – Vol. 9, No. 1–2. – P. 185–205.

13. Rockquemore K.A., Brunsma D.L. Beyond black: biracial identity in America. – Thousand Oaks, CA: Sage, 2002. – 224 p.

14. Bronfenbrenner U. The ecology of human development: experiments by nature and design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

15. Hughes D., Rodriguez J., Smith E.P. et al. Parents’ ethnic-racial socialization practices: a review of research and directions for future study // Developmental Psychology. – 2006. – Vol. 42, No. 5. – P. 747–770.

Global Science Publication